**“TASDIQLAYMAN”**

**To‘qimachilik BXM boshqaruvchisi**

**A.S.G’aybulloyev**

______________

**2026-yil 23-aprel**

# “O`zsanoatqurilishbank” ATBda korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari yuzasidan aholi va tadbirkorlar ishtirokida o`tkazilgan ochiq muloqot tadbiri bayoni

**2026-yil 23-aprel** **Buxoro shahri**

| | |
|---|---|
| **Qatnashdilar:** | O`zsanoatqurilishbank ATB Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati rahbari – **Sh.Ismoilov**<br>To‘qimachilik BXM boshqaruvchisi – **A.G’aybulloyev** |
| **Taklif etilganlar:** | “O`zsanoatqurilishbank” ATB mijozlari |
| **Ochiq muloqot o‘tkazilgan sana:** | 23.04.2026 yilda To‘qimachilik BXM majlislar zalida o‘tkazildi |

---

**“O’zsanoatqurilishbank” ATB To‘qimachilik BXMda “O`zsanoatqurilishbank” ATBda korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari yuzasidan aholi va tadbirkorlar ishtirokida ochiq muloqot tadbiri o‘tkazildi. Ochiq muloqot davomida qatnashchilarning korrupsiya va bank tizimiga oid barcha savol va takliflari eshitildi, hamda ularni hal etish yuzasidan chora-tadbirlar belgilab olindi.**

Tadbirni ochib berish uchun “O’zsanoatqurilishbank’” ATB Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati rahbari Sh.Ismoilov so’zga chiqdi hamda ochiq muloqot yuzasidan o`z fikrlarini bildirdi:

So`nggi yillarda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlash, byurokratiya va korrupsiyaning turli ko'rinishlariga qarshi kurashish mamlakatimizda davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishiga aylandi.

Bu borada Davlatimiz Rahbarining tashabbusi bilan boshlangan islohotlar natijasida davlat organlari va tashkilotlari faoliyali ochiqligi va shaffofligini ta’minlovchi mexanizmlar, shuningdek, jamoatchilik nazorati instituti hayotga samarali joriy etila boshlandi.

Jumladan “O`zsanoatqurilishbank” ATBda ham alohida mustaqil tuzilma – Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati tashkil qilindi va Bank Kuzatuv kengashiga hisobdor etib belgilandi.

Bugungi ochiq muloqot bu – “O`zsanoatqurilishbank” ATBda xodimlar bilan bog`liq bo`lgan har qanday salbiy holatlar xususan korrupsion holatlar bo`yicha ochiq-oydin gaplashish

maqsadida tashkil etilgan bo`lib, unda bu yerdagi barcha mijozlar o`z fikrlarini bemalol bildirishlari mumkin.

Shundan so'ng, bir qancha mijozlar xususan, "Zuxraxon Husenjon Vaziraxon" OK, "Grenray Karaulbazar" MCHJ, YATT Aldashov Ziyodullo Ne'matillo o'g'li, "Fayz Print Poligraf" MCHJ, "Obod O'lka Qurilish Servis" MCHJ, "Leo Brok Service Plus" MCHJ vakillari o`z fikr va mulohazalarini hamda mavjud muammolarini ma`lum qildi. (Ochiq muloqot davomida ko`tarilgan masalalar bo`yicha to`liq jadval ilova qilinadi)

Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati rahbari Sh.Ismoilov tomonidan har bir murojaat yozib olinib, har bir mijozga zarur tushuntirishlar berildi, hamda hal etilishi vaqt talab etiladigan murojaatlar bo`yicha tegishli tarkibiy bo`linmalarga ko`rsatma berilishi hamda qisqa vaqtda hal etilishi yuzasidan ma`lumot berildi.

Bundan tashqari ochiq muloqot davomida bank tizimida uchrayotgan qonun buzilish holatlari, xodimlar tomonidan o`z vazifalarini sovuqqonlik bilan bajarish holatlari hamda moddiy yoki nomoddiy manfaat evaziga lavozim vakolatlarini suiste`mol qilish holatlari uchrayotgan yoki uchragan taqdirda maxsus aloqa kanallari orqali hech kim bilan uchrashmagan holda ham bayon qilish mumkinligi tushuntirildi. Bunday holatlarda murojaat qiluvchi shaxs to`g`risidagi ma`lumotlar sir saqlanishi kafolatlanishi ma`lum qilindi.

Mazkur ochiq muloqotda qatnashgan barchaning fikr va mulohazalari tinglangandan so'ng, ochiq muloqot yakunida qatnashchilar tomonidan berilgan savollarga javob berildi va ochiq muloqot yakunlandi.

**Bayonnomani yuritdi:** **M.Turayev**

# "O‘zsanoatqurilishbank" ATB To'qimachilik BXMning tadbirkorlari bilan uchrashuv bo‘yicha MA’LUMOT

| № | СТИР | BXM nomi | Mijoz nomi | Rahbar | Raqami | Ko'tarilgan masala | Ijrochi departament |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | 309934943 | To'qimachilik BXM | "OTABEK-RUSLAN CHORVOSI" MCHJ | Nazarov Otabek Subhonovich | +99890-513-82-96 | Chorvachilik yo'nalishida Ekologik xulosa taqdim qilishini bekor qilish | Green banking departamenti |
| 2 | 305998344 | To'qimachilik BXM | "YUSUF BOBO FAYZ" MCHJ | Sultonov Rustam Alimurodovich | +99893-559-80-88 | Faktoring ajratishni qayta yo'lga qo'yish | Mikro va kichik biznes |
| 3 | 307943886 | To'qimachilik BXM | "ZUXRAXON HUSENJON VAZIRAXON" OK | Fayziyeva Dilobar Akmal qizi | +99897-181-37-37 | Faktoring ajratishni qayta yo'lga qo'yish | Mikro va kichik biznes |
| 4 | 311545691 | Markaziy bozor BXM | "MAANEN SOLAR ENERGY BUKHARA" MCHJ | Fayzullayev Nodirjon | +99891-407-00-43 | Online kredit ajratishni qayta yo'lga qo'yish va foiz stavkasini pasaytirish | Mikro va kichik biznes |
| 5 | 312511132 | Qorovulbozor BXM | "GREENRAY KARAULBAZAR" MCHJ | Safarov Jo`rabek Ahmadovich | +99899-350-49-15 | Online kredit ajratishni qayta yo'lga qo'yish va foiz stavkasini pasaytirish | Mikro va kichik biznes |
| 6 | 310998572 | Qorovulbozor BXM | "QOROVULBOZOR TEXNO" MCHJ | Hotamov Behzod Hoshimovich | +99894-466-90-99 | Online kredit ajratishni qayta yo'lga qo'yish va foiz stavkasini pasaytirish | Mikro va kichik biznes |
| 7 | 310663547 | Qorovulbozor BXM | "FEMIDA MARKET" MCHJ | Akbarov Jaxongir Umidjon o'g'li | +99891-924-00-66 | Maqsadsiz kredit uchun garov 125% taqdim qilinayotgan vaqtda kredit ajratishni tezlashtirish va so'ralayotgan hujjatlarni qisqartirish | Mikro va kichik biznes |
| 8 | 31602961120012 | Qorovulbozor BXM | YATT ALDASHOV ZIYODULLA NE'MATILLO O'G'LI | Aldashov Ziyodulla | +99899-705-10-63 | Kredit olish uchun ariza topshirilgan bo'lib, kredit hujjatlari asossiz ravishda "Underwriter" talabiga ko'ra bankning xavsizlik departamenti tomonidan tekshiruv olib borilayotganligi bildirilgan. | Kreditlarni ma'qullash departamenti |
| 9 | 303283152 | Qorovulbozor BXM | "FAYZ PRINT POLIGRAF" MCHJ | Yusubov Bexzod Shuxratovich | +99893-383-83-23 | Oldin ajratilgan va hozirgi kunda mavjud bo'lgan kreditning ta'minot qismi bo'yicha qo'shimcha kelishuv imzlosh uchun ruhsat berilishi | Kreditlarni ma'qullash departamenti |
| 10 | 301092305 | Qorovulbozor BXM | "OBOD O`LKA QURILISH SERVIS" MCHJ | Dilmurodov Miolimbek Ulug'bek o'g'li | +99897-303-06-96 | Avto kredit olish istagini bildirgan "Ikkilamchi bozor uchun" | Mikro va kichik biznes |
| 11 | 305902764 | Mustaqillik BXM | "LEO BROK SERVICE PLUS" MCHJ | PO'LOTOV ABDUVOSID VOHID O'G'LI | +99893-999-89-89 | Maqsadsiz ajratiladigan kreditlarni naqdlashtirishda komissiyani 1%ga tushurish | Mikro va kichik biznes |
| 12 | 306537806 | Mustaqillik BXM | "BUXARA JEMCHUJINA TRANS" MCHJ | Temirov Fazliddin Achilovich | +99891-444-51-14 | Bankning doimiy va ishonchli mijozlariga uchun kredit shartlarini nisbatan yengillashtirish | Mikro va kichik biznes |